

---

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIK TA'LIM  
JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7884950>

**G.B.Butayeva**

*Farg'ona davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrası magistri,*

**R.H.Boyboboyev**

*Farg'ona davlat universiteti aniq va tabiiy fanlar kafedrası o`qituvchisi*

**Annotatsia.**

*Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishda uziliksiz ta'lim tizimida ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarni tayyorlashda, dars jarayonini tashkil etishda, dars shakllari, metodlari va vositalaridan foydalanishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar.**

*Texnologik ta'lim, kompetentsiya, mexanizm, metodik, innovatsion, pedagogik, estetik va gigienik, globallashtirish, ta'limni integratsiyalashtirish.*

**Аннотация.**

*В данной статье в совершенствовании механизмов организации и управления процессами технологического образования в общеобразовательных школах, в системе непрерывного образования, в подготовке педагогов, осуществляющих инновационную деятельность в общеобразовательных учреждениях, в организации урока процессе, при использовании форм урока, методов и средств предоставляется информация о внедрении инновационных образовательных технологий.*

**Ключевые слова.**

*Технологическое образование, компетентность, механизм, методическое, инновационное, педагогическое, эстетико-гигиеническое, глобализация, интеграция образования.*

**Annotation.**

*In this article, in the improvement of the mechanisms of organization and management of technological education processes in general secondary schools, in the continuous education system, in the training of pedagogues who perform innovative activities in educational institutions, in the organization of the lesson process, in the use of*

*lesson forms, methods and tools information on the implementation of innovative educational technologies is provided.*

**Keywords.**

*Technological education, competence, mechanism, methodical, innovative, pedagogical, aesthetic and hygienic, globalization, integration of education.*

Mavzuning dolzarbligi: Uziliksiz ta'lim tizimida innovatsion faoliyat ko'rsatuvchi zamonaviy pedagogik va innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan qurollangan pedagoglarni tayyorlash jarayonini tezlashtirish va pedagogik mahoratini yanada takomillashtirish masalalariga o'rganishga qaratilgan.

Mavzuning maqsadi. Uziliksiz ta'lim tizimida ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik va innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan qurollangan pedagoglarni tayyorlash jarayonini rivojlantirish va o'quvchilar bilim darajasi yanada yuqori darajaga ko'tarishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fani darslarida texnologik jarayonlarini tashkil etish va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning omillarini zamonaviy yondashuvlar asosida ilmiy jihatdan asoslab, amaliyotga tadbiq etishdan iborat.

Mavzuning vazifalari. Uziliksiz ta'lim tizimida ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarni tayyorlashda dars jarayonini tashkil etishda dars shakllari, metodlari va vositalaridan foydalanishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish. Uziliksiz ta'lim tizimida ta'lim muassasalarida o'quv fanlarini o'qitish jarayonida tadbiq etiladigan muammoli o'qitish, loyihali o'qitish, modulli o'qitish, hamkorlikda o'qitish, vebinar texnologiyalari yordamida o'qitish, diagrammalar, grafikli organayzerlar, strategiyalar va loterial fikrlash ta'lim texnologiyalari kabi o'qitishning ta'lim innovatsiyalaridan foydalanishdan iborat.

Kirish. Ma'lumki, texnologiya fani darslari maktabda eng uzoq vaqt o'tiladigan o'quv fanlaridan biri hisoblanadi. Texnologiya o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar - mehnat faoliyati jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqida bilimlarini hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarini egallashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv fanidir. Bu fan umumiy o'rta ta'lim maktablarida uzoq muddat, ya'ni birinchi sinfdan to oxirgi sinfgacha bo'lgan davr

ichida o'qitilishi bilan o'quvchilar faoliyatida va maktab hayotida o'ziga xos muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan holda, ta'lim samaradorligini oshirish borasida mavjud bo'lgan xulosalar va tavsiyalarni amalda qo'llashga ehtiyoj tug' ilmoqda.

Mazkur muammolarni ijobiy yechimini topish uchun texnologiya fani o'qituvchisining texnologik jarayonlarni tashkil etishni bilishi va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish omillarini izlab topish yo'nalishida ilmiy tadqiqot ishlari olib borish shu kunning asosiy dolzarb muammosidir.

Ushbu muammoning dolzarbligi ilmiy nuqtai nazardan yetarlicha ishlanmaganligi, texnologiya fani, xususan, texnologik jarayonlarni tashkil etish masalalari va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish muammolari yuzasidan yetarlicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmaganligi mavzuning "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish" deb nomlashga asos bo'ldi.

Texnologiya fani o'qituvchisi eng avvalo quyidagilarga amal qilsagina darsga qo'yilgan maqsadga erishadi

-texnologiya fani darslarida texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va o'qituvchining boshqarish faoliyati mexanizmini takomillashtirishning ilmiy-metodik va psixo-pedagogik asoslari ishlab chiqish;

- texnologik ta'lim jarayonni tashkil etish va boshqaruv mexanizmini takomillashtirishning o'ziga hos yo'llari;

- texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish yo'llari;

- texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqaruv mexanizmini takomillashtirishda umumta'lim fanlari modullarini integratsiyasi.

- texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish tizimini ishlab chiqish va dars jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zarur.

Texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, taklif etilgan modellarning tushintirish mexanizmi, ilmiy-metodik va psixologik va pedagogik

asoslarning mavjudligi, ta'lim jarayonlarini zamonaviy yondashuv asosida tashkil etish, o'quv reja va dasturlarni takomillashtirish mehanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim sifati va samaradorligi rivojlantirishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mehanizmini takomillashtirish tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumiy o'rta ta'limi muassasalarida, xalq ta'limi xodimlarining qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarida o'qituvchilarning boshqaruv faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlar dasturlarini tayyorlashda, uning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablarini ishlab chiqishda, tinglovchilarning malaka oshirishdan keyingi faoliyati samaradorligi monitoringi mexanizmini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot o'tkazish usullari: ta'lim tizimi tarkibiga kiruvchi o'quv muassasalarining o'quv honalari, fan kabinetlari, o'quv-amaliy ustahonalari va kasb-hunarga yo'naltirish kabinetlaridan iborat. Uziliksiz ta'lim tizimida tarkibiga kiruvchi ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarni tayyorlashda dars shakllari, metodlari va vositalaridan foydalanishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish, shuningdek, ta'lim muassasalarida o'quv fanlarini o'qitish jarayonida tadbiq etiladigan muammoli o'qitish, loyihali o'qitish, modulli o'qitish, hamkorlikda o'qitish, vebinar texnologiyalari yordamida o'qitish, grafikli organayzer strategiyasi va loterial fikrlash ta'lim texnologiyalari kabi o'qitishning innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishdan iborat.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, tadqiqotda belgilangan maqsadga erishildi: o'qitishning innovatsion usullari yordamida zamonaviy pedagogik texnologiya ishlab chiqildi. Ushbu maqsadni amalga oshirish jarayonida himoyaga taqdim etilgan qoidalarni hal qilish orqali erishildi. Magistrlik dissertatsiyasining natijalari o'quv jarayoniga tatbiq etish bir qator xulosalar chiqarishga imkon berdi. Uziliksiz ta'lim tizimida innovatsion faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarni tayyorlashda o'quv fanlarini o'qitish jarayonida vebinar texnologiyasi, grafikli organayzer strategiyasi va loterial fikrlash usullarini o'qitishning innovatsion ta'lim texnologiyalari sifatida tadqiq qilindi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G.J.Rajabova texnologik jarayonlarni loyihalash
2. O'.O. Tohirov, D.S.Mirahmedova, Z.S.Shamsiyeva Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik

3. Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A., Toxirov O'.O., Abdullayeva Q.M., Nasrullayeva F.A., Madaipov A.A. Texnologiya [Matn] : 6-sinf uchun darslik / - Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2021

4. Yusupbekov N.R., Igamberdiyev X.Z., Malikov A. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish asoslari. – T.: ToshDTY, 2007.

5. M.M.Axmedov, Bo'tayeva Gulmira Boxodirjonovna //TEKNOLOGIYA FANIDA TEKNOLOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 19.10.2022 12-SON 745-750 betlar.

6. M.Akhmedov, G.T. Khojkarimova, G.B.Butayeva //Didactic features of the method of preparation of "innovative development of the topic" based on the principle of "lifelong learning" in the organization and improvement of management activities of technological educational// Modern Journal of Social Sciences and Humanities ISSN: 2795-4846 Vol. 4 (2022)

7. M.M. Ahmedov, Z.A.Teshaboev, G.Bo'taeva, M.Madaminova // Pedagogik mahorat ta'lim jarayonining muhim omili // ishlab chiqarishning texnik, muhandislik va texnologik muammolarining innovatsion yechimlari mavzusidagi xalqaro miqyosdagi ilmiy-texnik anjumani materiallari to'plami 4- Qism (2022 yil 28-29-oktabr)

8. M.M.Ahmedov, G.B.Butayeva //Texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish hususiyatlari// Interdiscipline innovation and scientific research conference International scientific-online conference. Part 4 (15.12.2022yil)LONDON 2022 49- 54 pages.

9. M.M.Ahmedov, Z.Teshaboev, G.Xojkarimova. /Ta'lim tizimida islohatlar// Mejdunarodnyy nauchnyy jurnal "Graal nauki" № 4 (Traveny, 9 aprely 2021) Venetsiya, Italiya S.475-477

10. M.M.Axmedov, Z.A.Teshaboev, G.T.Xojkarimova //Education system - integrated process// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 03 2022. 4211-4214.

11. M.M.Axmedov, S.M.Puzimatova, A.Iyuldashov //TEKNOLOGIK TA'LIM JARAENLARINI BOSQARISHNING PEDAGOGIK TIZIMI SIFATIDA UZIGA XOS XUSUSIYATLARI// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11| Issue-2| 2023. 661-667 pages.

12. М.М.Ахмедов, З.Тешабоев Г.Хожикаримова // Ёшларни касб-хунарга йўналтириш// Международный научный журнал «Вестник науки» опубликована № 11 (44). Г.Тольятти от 7 ноября 2021 г.

13. Р.Х.Мақсудов, С.М.Отажонов, М.М.Ахмедов, Ш.Ш.Шухратов, Г.Т.Хожикаримова //Иновацион таълимда дарс шакли, методи ва воситаларини танлаш// Ўқув кўлланма. Фаргона 2022.

14. М.М.Ахмедов, С.М.Рўзиматова, З.А.Тешабоев //“ҲАЁТ ДАВОМИДА ЎҚИШ” ТАМОЙИЛИ АСОСИДА МАВЗУ “ИННОВАЦИОН ИШЛАНМАСИ”НИ ТАЙЁРЛАШ МЕТОДИ// O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 19.10.2022 12-SON 668-674 betlar.

15. М.М.Ахмедов, Г.Т.Хожикаримова //Ўқитишнинг сифати ва таълим-тарбия самарадорлигини оширишда инновацион характерга эга бўлган инновацион дарс шаклларида фойдаланиш// Общество и инновации. 2021 2(2) 1-7

16. M.M.Akhmedov, S.M.Rozimatova, Z.A.Teshaboev //AN IMPORTANT FACTOR FOR IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS ON THE PRINCIPLE OF "LIFELONG LEARNING"// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ). Vol. 10, Issue 10, Oct. (2022). 671-676 pages.

17. М.М.Ахмедов, И.И.Каримов, С.М.Рўзиматова //ДАРС ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ МУНОСАБАТЛАРИНИ АМАЛАГА ОШИРИШ ОМИЛЛАРИ// O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 19.10.2022 12-SON 56-60 betlar.

18. М.М.Ахмедов, З.Тешабоев Г.Хожикаримова С.М.Рўзиматова. //Технологик таълим жараёнларини ташкил этиш ва бошқариш механизмини такомиллаштириш механизмини такомиллаштиришнинг илмий-методик асослари// Международный научный журнал. ORIENTAL RENAISSANCE: Innoralirc, ceducational, natural andsocial scinces.Volume 2 ISSUE 8. August 2022. стр.336-342.

19. Parpieva O.R, Hojekarimova G.T, Nazirova A.M //FORMATION OF STUDENT PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON THE REQUIREMENTS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT// Международном научно-практическом журнале “Экономика и социум”. Вып №6(85) 2021. 157-161стр.

20. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, A.Ruzimatova //CREDIT-MODULE SYSTEM OF EDUCATION// O‘ZBEKISTONDA FANLARARO

INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 20.08.2022 yil. 10-SON. 83-87 betlar

21. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Ro„zimatova Arofatxon Maxmudjon qizi //TA‘LIM OLUVCHILARNI FANLARNI O„ZLASHTIRISHGA QIZIQTIRISH USULLARI// IJODKOR O‘QITUVCHI JURNALI. 5 OKTYABR / 2022 YIL / 22 - SON. 226-230 betlar

22. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Melikuzieva Zulhumor Sherqozi qizi, Abdullaeva Umidahon Uktamjon qizi //INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES, THEIR NATURE, TYPES AND THEORETICAL FUNDAMENTALS// Texas Journal of Multidisciplinary Studies. Vol. 9. 06-2022. 123-126 page.

23. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Odinaxon Odilovna Djalalidinova //Tibbiy ta‘limda interfaol usullardan foydalanish// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 3 (100), часть 1. сентябрь, 2022 г 565-569.

24. Парпиева Одинахон Рахмановна, Раззоков Бахтиёр Хабибуллаевич //ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ// Международный научный журнал «Научный импульс». No5(100), часть 2. Декабрь, 2022. 204-210 стр.

25. M.M. Ahmedov, S.M. Ruzimatova, A.YU.Yoldashev //Organization of Technological Educational Processes and Using the Method of "Integration Strategy" in Improving the Management System// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Volume 19. 06-04-2023. 1-6 pages.

26. М.М.АХМЕДОВ, С.М.РЎЗИМАТОВА, А.Ю.ЙЎЛДАШЕВ //ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА ТЕХНОЛОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ТАЯНЧ ВОСИТАСИ СИФАТИДА// PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works of the International scientific conference (17 April, 2023) - Copenhagen. Part 22. 15-20 pages.